



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Навоий вилояти

210100 Navoiy sh. Zarapetyana-10, Tel-Fax (436)- 220-50-01. navoi.ex@mail.ru [www.mc.uz](http://www.mc.uz)

Holati: Ijobiy

Direktor: YILMURATOV DIYORJON FAYZULLAEVICH

Sana: 26-10-2022 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 67136**

**Obyekt nomi** «Buxoro viloyati G'ijduvon tumani Sho'rko'l suv ombori suv chiqish inshootini joriy tamirlash.»

**Buyurtmachi** - Buxoro viloyati G'ijduvon tumani «Toshrabot-Jilvon» ITB.

**Bosh loyihachi** - «Navoiy svuloyiha» MCHJ

**Litsenziya** 07.07.2020 yilda berilgan АЛ-001232-sonli litsenziya, amal qilish muddati cheklanmagan.

**Moliyalashtirish manbai** - byudjet mablag'lari.

**Bosh pudratchi** - tender orqali aniqlanadi.

**Qurilish turi** joriy tamirlash.

**Murojaat raqami:** № 64388

**1. Loyihalash uchun asos**

1.1. Buxoro viloyati G'ijduvon tumani Sho'rko'l suv ombori suv chiqish inshootini joriy tamirlash loyihasini ishlab chiqish uchun loyiha topshirig'i Buxoro viloyati G'ijduvon tumani «Toshrabot-Jilvon» ITB boshlig'i D.To'rayev tomonidan tasdiqlangan 21.10.2022yil.

1.2. Buxoro viloyati G'ijduvon tumani Sho'rko'l suv ombori suv chiqish inshootini joriy tamirlash smetasini ishlab chiqish uchun nuqsonlar dalolatnomasi Buxoro viloyati G'ijduvon tumani «Toshrabot-Jilvon» ITB boshlig'i D.To'rayev tomonidan tasdiqlangan 21.10.2022yil.

1.3. Buyurtmachining 21.10.2022-yildagi 32-sonli xati loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun dastlabki ma'lumotlar, ishlab chiqaruvchilarning narx-navosi.

1.4. Qurilish material narxlar dalolatnomasi Buxoro viloyati G'ijduvon tumani «Toshrabot-Jilvon» ITB boshlig'i D.To'rayev tomonidan tasdiqlangan 21.10.2022yil.

1.5. Buyurtmachining loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun dastlabki ma'lumotlar xati Buxoro viloyati G'ijduvon tumani «Toshrabot-Jilvon» ITB boshlig'i D.To'rayev tomonidan tasdiqlangan.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

2.1. Buxoro viloyati G'ijduvon tumani Sho'rko'l suv ombori suv chiqish inshootini joriy tamirlashda buyurtmachi tasdiqlagan loyiha topshirig'i va nuqsonlar dalolatnomasiga asoslanib ishlab chiqilgan loyiha - smeta hujjati.

2.2. Ob'ekt narxining smeta qismi.

Umumiy qiymati QQS bilan hisoblanganda 1 255 679,888 ming so'm hisoblangan.

### **3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

#### 3.1. Hudud va qurilish maydonchasi tavsifi.

Joriy tamirlanishi rejalashtirilgan obyekt Buxoro viloyati G'ijduvon tumani hududida joylashgan bo'lib hudud quyidagi iqlim sharoitlariga ega:

Iqlim mintaqasi - IVA.

Bino-iqlim zonasi - IA.

Qishki tashqi havo harorati  $-13^{\circ}\text{C}$ .

Normativ qor yuki - 0,50 kPa.

Standart shamol bosimi - 0,38 kPa.

Tuproqni muzlatishning me'yoriy chuqurligi 0,57m.

Qurilish hududining seysmikligi - 7 ball.

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani Sho'rko'l suv ombori suv chiqish inshootini joriy tamirlash loyihasi, buyurtmachining tasdiqlagan nuqsonlar dalolatnomasiga muvofiq ishlab chiqilgan smeta hujjatiga qo'yidagi ish turlari nazarda tutilgan:

#### *I. Sho'rkol suv ombori suv ombori suv chiqish inshootini joriy tamirlash:*

- Bosh binoning ta'mirlash;
- Qorovulxonani ta'mirlash.

#### *II. 4 dona elektr uzatgichli vintli suv to'suvchi inshootini tamirlash:*

- 4 dona elektr uzatgichli vintli, yuk ko'tarishni ta'mirlash;
- 4 dona suv to'suvchi darvozani ta'mirlash.

#### *III. Elektr va Avtomatik boshqaruv tizimi (ASU):*

- Mavjud transformator podstansiyasini yangilash;
- 3 dona mavjud elektr uzatgich tayanchini almashtirish;
- Mavjud elektr jihozlarini yangilash.

#### *IV. Yuk ko'tarish mexanizmini tamirlash:*

- Elektr dvigitel, kabel, po'lat arqonni yangiga almashtirish va yuk ko'tarish ramasini bo'yoqlash.

#### *V. Bosh inshoot darvozasini tamirlash:*

- Darvozani olib qayta ta'mirlab o'rnatish va bo'yoqlash.

#### *VI. Inshoot hududini obodonlashtirish:*

- Inshoot binosini oldini betonlash va yo'llini asfalt yotqizish.

#### *VII. Sho'rkol kanalini inshootdan chiqish qismini tamirlash (betonlashtirish).*

### **4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

#### 4.1. Loyixada ko'zda tutilmagan.

### **5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

5.1. Buyurtmachi ushbu ishchi loyihani qo'yidagi tashkilotlar bilan kelishib olinishi zarur:

- Buxoro viloyati G'ijduvon tumani «Toshrabot-Jilvon» ITB;
- G'ijduvon tumani sanitariya epidemiologik osoyishtalik markazi bilan.

## 6. Ekspertiza natijalari.

### 6.1. Smeta hujjatlari.

Qurilish tannarxini joriy narxlarda hisoblash Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sod qaroriga muvofiq xarajatlarni prognozli joriy narxlarda hisoblash asosida resurs usulidan foydalangan holda amalga oshirilgan va "O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan ShNK 4.01.16-09 "Qurilish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari" ABC4-UZ (2019.1) dasturiy majmuasida ishlab chiqilgan.

Ish haqi xarajatlari resurs smetasining bir qismi sifatida belgilangan qurilish ishchilarining mehnat xarajatlarini va ishchilarining o'rtacha soatlik ish haqini ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Ishchilarining o'rtacha soatlik ish haqi buyurtmachining ma'lumotlariga ko'ra qabul qilingan.

Qurilish materiallari, asbob-uskunalar, moddiy-texnika resurslari narxlari buyurtmachining dastlabki malumotlariga asosan joriy narxlar katalogi bo'yicha (2022yil II-chorak uchun) olingan.

Mashina va mexanizmlarni ishlatish narxi buyurtmachi dastlabki ma'lumotlariga ko'ra qabul qilingan.

Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan dastlabki ma'lumotlarga ko'ra pudratchining boshqa ko'zda tutilmagan xarajatlari 18% qabul qilingan.

6.2. Buxoro viloyati G'ijduvon tumani Sho'rko'l suv ombori suv chiqish inshootini joriy tamirlash loyihasining materiallari tasdiqlangan loyiha topshirig'iga va nuqsonlar dalolatnomasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

6.3. Shartnoma bo'yicha import va texnologik asbob-uskunalarini sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va bu bilan bog'liq xarajatlar ekspertiza tomonidan hisobga olinmagan.

6.4. Ekspertiza jarayonida aniqlangan fikr-mulohazalar va takliflar mahalliy ekspertlarning 26.10.2022yildagi raqamsiz lokal xulosalarida ko'rsatilgan va buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti manziliga yuborilgan.

Loyixa tashkilotining 26.10.2022yilgi 40-sonli xati orqali tuzatishlar kiritilganligi ma'lum qilingan.

6.5. Buxoro viloyati G'ijduvon tumani Sho'rko'l suv ombori suv chiqish inshootini joriy tamirlash loyihasi bo'yicha buyurtmachi tomonidan aniqlangan boshlang'ich qurilish qiymati QQS bilan 1 255 679,888 ming so'mni tashkil etgan.

Ekspertiza natijalariga ko'ra ishlar xajmi va xarajatlarga aniqlik kiritilgandan so'ng 6 600,225 ming so'mga kamaydi.

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani Sho'rko'l suv ombori suv chiqish inshootini joriy tamirlash loyihasi obyekti qurilishining tavsiya etilgan qiymati QQS bilan **1 249 079,663** ming so'mni tashkil etdi, shu jumladan:

- qurilish-montaj ishlari - 1 008 638,480 ming so'm;
- Uskunalar - 77 517,749 ming so'm;
- QQS - 162 923,434 ming so'm,

Bundan tashqari: buyurtmachining boshqa xarajatlari QQS bilan - 68 800,00 ming so'm.

## **7. Xulosalar.**

7.1. Buxoro viloyati G'ijduvon tumani Sho'rko'l suv ombori suv chiqish inshootini joriy tamirlash loyihasi ekspertiza natijalarini inobatga olgan holda ushbu xulosaning 5.1-bandiga muvofiq ijobiy ma'qullangandan so'ng qo'shimcha ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsija etiladi.

Qurilishning tavsija etilgan qiymati ish shartnomasini tuzish uchun asos bo'lmaydi.

7.2. Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi qarorlariga muvofiq 261-son va ShNK 4.01.16-09 raqobatbardosh savdolar uchun boshlang'ich qiymati Buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

7.3. Pudratchining xarajatlari, transport xarajatlari, qurilish materiallari, konstruktsiyalar, asbob-uskunalar va inventarlarning narxi ma'lumot uchun berilgan, nazorat funksiyasi Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.


7.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021yil 17-sentabrdagi 579-son qarori 1-ilova III-bob 29-bandiga asosan "Davlat ekspertizasiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachi (loyihalash jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi nuqtai nazaridan) va ishlab chiquvchini (shartnomalar bo'yicha, qabul qilingan loyiha qarorlari va yechimlari bo'yicha) zimmasiga yuklanadi.

**Bosh mutaxassis:** Nuraliyev Utkir Urmonovich 444451085

**“TASDIQLAYMAN”**

**“Toshrabot-Jilvon” ITB boshlig’i**

D.To’raev



2022y.

**“Buxoro viloyati G’ijduvon tumanidagi “Sho’rko’l” suv ombori suv chiqish inshootini joriy ta’mirlash” obektining ishechi loyihasini islab chiqish uchun**

**LOYIHA TOPSHIRIQNOMASI**

<b>Nº T/r</b>	<b>Asosiy ma’lumotlar va talablar ro‘yxati</b>	<b>Asosiy ma’lumotlar va talablarning mazmuni</b>
1	2	3
1	Buyurtmachi	“Toshrabot-Jilvon” ITB boshqarmasi
2	Loyihani amalga oshirish uchun asos	2022 yil harajatlar smetasi doirasida ajratilgan joriy ta’mirlash mablag’lari hisobidan.
3	Moliyalashtirish manbai	Mahalliy byudjet hisobidan.
4	Obyektning taxminiy qiymati	1300,0 mln.so’m.
5	Loyiha tashkiloti (Bosh loyihachi) nomi	Tanlov asosida
6	Xavfsizlik ishlari shartlari	Normativ hujjatlar talablariga rioya qilish. Obyektda yong‘in xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish va sanitariya-gigiyena rejimiga rioya qilish uchun javobgarlik pudratchiga tegishli bo‘lib, javobgarlik buyruq bilan belgilanadi, buyruq nusxasi buyurtmachiga beriladi. Pudratchi shartnomalar imzolangunga qadar shartnomalar shartlari bo‘yicha ishlarni bajarishda qurilish tavakkalchiliginи sug‘ortalash shartnomasini tuzishi va buyurtmachiga shartnomaning nusxasini to‘lovnasi tasdiqlovchi hujjat bilan taqdim etishi shart.
7	Loyihalashtirilayotgan obektning tarkibi.	Sho’rko’l suv ombori suv chiqish inshootini joriy ta’mirlashda 1. Mavjud suv chiqish inshoot binosini tomini, derezalarini, darvozasini, pol va devorlarini ta’mirlash. 2. Mavjud suv chiqish inshootini 4 dona elektr yordamida ko’tarib tushiradigan reduktorini moslamasini va darvozalarni ta’mirlab elektr tizimini yangilash. 3. Yangi transformator KTP 160/10-0,4 KV o’rnatish. 4. Havo elektr tarmog’l uchun 3 dona temir betonli toyanch o’rnatish. 5. Mavjud suv chiqish inshootidan Sho’rko’l

		suv chiqish kanalini bosh qismini temir beton qoplamasи bilan mustahkamlash. 6. Mavjud suv chiqish inshoot binosini ko'cha yoritislar bilan jixozlah. 7. Mavjud yuk ko'tarish kranini ta'mirlah.
8	Qabul qilinayotgan qarorlarining energiya samaradorligini ta'minlash bo'yicha talablar	Qurilish montaj ishlarini amalga oshirish davrida energiya tejamkor uskunalaridan foydalanish.
9	Qurilish murakkabligi toifasi	Obyektning murakkablik darajasini ko'rsatish zarur — II
10	Nazorat talablari va ish natijalarini topshirish tartibi	"Sho'rko'l" suv ombori suv chiqish inshootini joriy ta'mirlash" bo'yicha qurilish montaj ishlarini bajarish. Qurilish montaj ishlarining bajarilishi ish xajmlarining va ishlataladigan materiallar tegishli xujjatlar bilan rasmiylashtiriladi.
11	Obyektni moliyalashtirish tartibi	Bo'nak-30% ; Qolgan 70% mablag'lar bajarilgan ish xajmlarini hujjatlashtrilgandan keyin to'lov ishlari amalga oshiriladi.
12	Pudratchiga texnik va boshqa hujjatlarni topshirish bo'yicha talablar	Loyihachi belgilangan tartibda tasdiqlangan va kelishilgan ishchi loyihaning chizmalarini, ish hajmlarining elektron shakli (MC Exel formatida) taqdim etiladi. Pudratchi tasdiqlangan hujjatlar asosida qurilish montaj ishlarini bajaradi hamda qilingan ishlardalolatnomalar orqali rasmiylashtiriladi va foydalanuvchiga topshiradi.
13	Ish sifati kafolatlarining hajmi va muddati bo'yicha talablar.	Barcha qurilish montaj ishlari loyiha smeta hujjatlariga asosan bajariladi.
14	Loyihalash bosqichi	Bir bosqichli loyiha

Bosh mutaxassis

M.Raxmonov